

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida:
UDK**

MIXLIYEV ANVAR TOSHEMIROVICH

**O'ZBEK TILIDA MASHQLAR TO'PLAMINING MAZMUN
MUNDARIJASI**

MAGISTR

AKADEMIK DARAJASINI OLISH UCHUN YOZILGAN DISSERTATSIYA

**Ish ko'rib chiqildi va himoyaga
ruxsat berildi.**

**Amaliy tilshunoslik,
o'zbek tili va adabiyoti o'qitish**

metodikasi kafedrası mudiri:

f.f.n.Muhiddinova B.

Ilmiy rahbar:

dots.A'zamov S.

SAMARQAND - 2012

KIRSH.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga katta e'tibor berila boshladi. "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi", davlat standartlarining chop etilishi ushbu jarayondagi eng muhim bosqichlardir.

O'zbek tili o'qitish metodikasi fani - hozirgi kungacha boy tajriba to'pladi. U pedagogika fanlari sistemasidagi mustaqil fan sifatida shakllandi, rivojlandi, rivojlanishda davom etmoqda. Uning mazmuni ona tili ta'limining izchil sistemasini ishlab chiqish, ona tili darslarini tashkil qilishga oid metodik tavsiyalarni tanlash va amaliyotga joriy etishgina emas, balki metodika sohasining zamonaviy pedagogik texnologiyalar, til o'rganishning interaktiv (ijodiy) metodlarini o'zida ifodalagan ilmiy asoslarini ishlab chiqishdan iboratdir¹.

O'zbek tili o'qitish metodikasi, birinchi navbatda falsafa va umumiy tilshunoslik hamda tilshunoslikning nazariy asoslari bilan chambarchas bog'liqdir. Yaxshi bilamizki til va nutq ajralmas yaxlitlikni tashkil etadi, shunga qaramay, ular ayni bir xil hodisa ham emas. Ular nutqiy faoliyatning asosini tashkil etadi. Insonning nutqiy faoliyati zimmasidagi vazifalar juda ko'p. Shulardan biri tilning sistemaviy yaxlitligi haqidagi ta'limotdir. Bu muhim ahamiyat kasb etadigan ilmiy, amaliy xulosa quyidagilardan iborat, til, uning barcha sathlari (qism) vosita va birliklari o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, til ma'lum bir fikrni ifodalashda hamisha juda ko'p vositalarga egadir.

O'zbek tili o'qitish metodikasi fani ta'limning turli bosqichlarida uni o'qitishga tegishli grammatik terminlarning allaqachon shakllanganligi va ularning ta'limot amaliyotida faol iste'molda ekanligini ta'kidlash joiz, shunga qaramay, bu sohada hali anchagina notugalliklar, har xilliklar mayjudligini tan olishga to'g'ri keladi.

O'zbek tili o'qitish metodikasi fani egallagan bilimlarni pedagogik amaliyotga joriy etish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishga

¹. Karimov I.A. "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". Toshkent. 1997 yil. 83-bet

yo'naltirilgan. U ijodiy tafakkur sohibmi shakllantirishning asoslarni o'rganadi. (lisoniy ta'limot).

Yangi zamonaviy texnologiyalarga asoslanib tuzilgan, ta'limning jahon andozlariga mos keladigan dastur va darsliklar yaratish - davr talabidir².

Aynan shu nuqtaiy nazardan olganda, hozirgi o'zbek adabiy tilining qurilish ilmiy talqinlari ham, lug'aviy - grammatik munosabatlar sistemasi ham yangilandi va rivojlantirildi. Shu sababli pedagogika institutlari hamda universitetlarni bitirib chiqayotgan yoshlar maxsus tayyorgarliklarsiz ona tili mashg'ulotlarini talab darajasida o'tkazishga qiynaladilar. Mazkur qo'llanmada ona tili o'qitishning yangilangan mazmuni, texnologiyasini - ongli verbal - kognitiv ta'lim sistemasiga tayanilgan holda izohlab berishga, bu haqda qisqacha tushuncha berishga harakat qilinganligi foydali hodisadir.

Uzluksiz raqobatchilikda tayangan bozor iqtisodiyoti tezkor, tadbirkor, sharoitga ko'ra ish biladigan, maqsadga erishish vositalarini jadallik bilan yangilay oladigan faol shaxslarga muhtoj bo'ladi. Shuning uchun g'arb davlatlarida tarbiya sistemasida bixebioristik yondashuvdan kognitiv yondoshuvga qarab siljish sezilarli bo'ldi. Inson faoliyatini baholashda kognitivizm (ing. kognitive - ta'limiy, o'rganilgan, o'zlashtirilgan) ning 60 - yillarigacha pedagogika va psixologiya fanida hukmron bo'lgan bixebioristik yondashuvdan quyidagicha farqlanadi.

- a) bixebioristik yondoshuvda shaxsning hatti - harakatlari tashqi muhit ta'siri bilan belgilanadigan, ko'p hollarda ongsiz harakatlar yig'indisi sifatida tushuniladi;
- b) kognitiv yondoshuvda bu hatti - harakatlarda onglilik - ta'lim asosida hosil qilingan malaka va ko'nikmalar ustunligi tan olindi.

Shundan ma'lumki, bixebioristik yondoshuvda inson va tarbiya, sust, kognitiv yondoshuvda esa ular faoldir.

Mashhur pedagog - metodist D.Uzbel bu yo'nalishga asos solib, ta'lim jarayonida yetakchi usul - kashfiyot ekanligini alohida ta'kidladi. Kashfiyot ta'lim

² Каримов И.А. Юксак маънавият - энгилмас куч. -Тошкент: Маънавият, 2008.-173 б.

usulining mohiyati shundaki, ta'lim oluvchi har bir topshiriqni bajarish jarayonida yangi - yangi materiallarni kashf etishi yoki nimadir yaratish bilan shug'ullanadi. Shu bois ta'lim jarayonida onglilik yetakchilik qiladi.

Shu nuqtaiy nazardan qaraganda prezidentimizning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq IX sessiyasida so'zlagan nutqida shunday degan edi: "O'qituvchining bosh vazifasi - o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmasini hosil qilishdan iboratligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin, afsuski, amalda, tajribamizda unga amal qilmaymiz". Yoki I.Karimov o'zining yana bir nutqida "Nega xalqimiz uchun Navoiy she'rlarini anglash bugun qiyin?" deya bergan savolida ona tilimiz boshiga tushgan qismat dardi bor edi deganida katta haqiqat bor. Xalqimiz kitob o'qimaydi, gazeta o'qimaydi, o'z ustida mustaqil ishlamaydi.

Mustaqillik yillarida o'zbek tilining lug'at sostavi va asosiy lug'at fondi boyidi. Tilimizning besh jildlik izohli lug'ati, imlo lug'ati, qiyosiy lug'atilar chop etildi. Umumta'lim maktablarining ona tili va adabiyot darsliklari yangi tahrirdan chiqdi.

Mashhur qozoq shoiri O'ljas Sulaymonov O'zbekistonda mehmon bo'lib, yosh shoirlar bilan diyorimiz bo'ylab yurgan. U suhbatlarining birida, shunday degan: "Men qozoqning shoiri nega ruscha yozaman? O'z ona tilimda yayrab yozsam, yayrab she'rlar o'qisam bo'lmaydimi? Afsuski, xalqimning yosh avlodi, o'z tilida kitob o'qimay qo'ygan. Olmaotada yakka - yolg'iz bir dona qozoq maktabi bor. Bu mening hech tuganmas dardim, og'rig'im". Shunday deya turib O. Sulaymonov yuzini darcha tomonga o'girgancha ko'ziga qalqqan yoshni berkitib bir muddat jim qolgan edi.

O'ljas Sulaymonovning ko'nglidagi o'sha dard barchamizning qalbimizda bor dard edi. Dog'istonning mashhur xalq shoiri Rasul Hamzatov o'zining "Til tilga yov emas" (Izvestiya gazetasi 29.03.1988) degan maqolasida yozadi: Ozarboyjondagi xinalug, Gurjistondagi bastbiy va Dog'istondagi archin tillari mening nazarimda, biror narsani insonga zo'rlab tiqishtirishdan xavfliroq narsa yo'q. Shu jumladan tilni ham nafaqat bir tilni tanlaymiz. Balki til ham bizni

tanlaydi. Mening Dog'istonimda adabiyot to'qqiz tilda yaratiladi. Yangidan ikki jurnal chiqa boshladi. Xavotirga soladigan boshqa masala o'n - yigirma yildan keyin bu jurnallarni kim o'qiydi. Maxachkalada ajdodlarimiz tilini o'rganadigan na bir bolalar bog'chasi, na bir maktab, hattoki na bir sinf bor.

Ko'rinib turibdiki, bunday holat O'zbekistonda ham yuz bergan edi. Ba'zi ota - onalar o'z bolalarini bog'chada va maktabda rus tilida o'qitishga berilib ketgan edilar. Biz ko'p jihatdan o'tgan asr boshlarida yashagan ziyolilar M.Behbudiy, A.Qodiriy, Cho'lpon, A.Avloniy, S.Ayniy, H.Hakimzodalardan minnatdormiz. Bunday ta'lim (ongli verbal kognitiv ta'lim) usulini amaliyotda qo'llash va bu yo'nalishdagi ilk tajribalar bo'yicha ayrim kamchiliklar ham mavjud.

Hozirgi o'zbek adabiy tilini o'qitish metodikasi ijodkor, komilu fozil shaxsni tarbiyalsh sohasida hamkorlik pedagogikasida hamda ongli - verbal kognitiv ta'limga tayanadigan yo'lni tanlash ona tili o'qitish metodikasi fani yosh avlodga ona tilidan nimalarni? qanday? qancha? o'rgatish kerak degan savollarga javob beradi.

Maktabda hozirgi o'zbek adabiy tilidan mashqlar to'plami mazmun mundariyasi bitirish ishimizning asosiy mavzusi hisoblanadi. Ma'lumki, maktab ona tili (V - VI sinflar) darsligida bu mavzuni o'qitish va ular to'g'risida o'quvchilarga puxta bilim berish o'qituvchi oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

Mavzuga doir qo'llanma ancha ilgari (1968, 1984, 1988 yillar) yaratilgan bo'lsa, biz shulardan ijodiy foydalangan holda ish yuritishni lozim deb topdik. Chunki darslik asosida yaratilgan mashqlar to'plami o'quvchi va talaba xohishiga javob berishi lozim. Yana bir misol O'zbekiston Qahramoni shoir Erkin Vohidov (21.X.2003) o'zining "Ona tilim" ("O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi) degan maqolasida yozadi: "O'zbek tilining chinakam boyligi va qudrati rosmana o'rganilmagan. Tilimiz dunyoning eng rangin va rangin tillaridan biridir", degan edi. Shuning uchun har bir o'quvchi yoki talaba o'z ona tilini puxta bilishi, o'zlashtirishi lozim.

Birinchi qism.

Morfologiya.

Mustaqil va yordamchi so'zlar. Birinchi ishimizning birinchi qismida 5 - sinf ona tilidan ikki chorakka mo'ljallangan ish rejasini keltirishni lozim topdik. Chunki 4 - kurs talabalari 7 -semestirda pedagogik amaliyot o'tash uchun Samarqand shahridagi maktablarga chiqdilar va chiqadilar.

I-Chorak Kirish - 2 soat.

Kirish suhbat. Til ijtimoiy hodisa.....	1
O'zbek tili - Davlat tili.....	1

Takrorlash -13 soat.

Ayrim unlilar imlosi.....	1
Ayrim undoshlarning yozilishi.....	1
Bosh va kichik harflarning qo'llang.....	1
Bir tovish bilan farq qiladigan so'zlar ma'nosi va imlosi.....	1
Nazorat diktanti.....	1
Ma'nodosh so'zlar.....	1
Shakldosh so'zlar.....	1
Zid ma'noli so'zlar.....	1
Qo'shma so'zlar imlosi.....	1
Juft so'zlar imlosi.....	1
Darak, so'roq, buyruq va his - hayojon gaplarda tinish belgilari.....	1
Nazorat diktanti.....	1
Testlar ustida ishlash	

Sintaksis va punktuatsiya 44 soat.

Sintaksis va punktuatsiya.....	1
Gap.....	1
Gapda so'zlarning bog'lanishi.....	1
So 'z birikmasi.....	1
Mustahkamlash darsi.....	1

Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari.....	1
Darak gap. So'roq gap.....	2
So'roq olmoshlari yordamida ifodalangan so'roq gaplar.....	1
So'roq yuklamalari yordamida ifodalangan so'roq gaplar.....	1
Buyruq gaplar. Istak gaplar.....	2
His - hayojon gaplar.....	1
Mustahkamlash darsi.....	1
Yozma ish va uning tahlili.....	2
Gap bo'laklari.....	1
Kesim. Fe'l kesim va ot kesim.....	2
Ega.....	1
Nazorat diktanti.....	1
Sodda yig'iq va sodda yoyiq gap.....	1
Hoi. To'ldiruvchi.....	2
To'ldiruvchini hokim bo'lakka bog'lovchi vositalar.....	1
Test ustida ishlash.....	1
Aniqllovchi. Sifatlovchi aniqllovchi.....	2
II	
Qaratqichli aniqllovchi.....	1
Mustahkamlash darsi.....	1
Uyushiq bo'lakli gaplar va ularda tinish belgilarining ishlatilishi.....	1
Uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi so'zlar va ularda tinish belgilarining ishlatilishi.....	1
Undalma gaplar	
Undalma gaplarda tinish belgilari.....	1
Yozma ish va uning tahlili.....	2
Kirish so'z.....	1
Kirish so'zlarning gapdagi o'rni.....	1
Qo'shmagap.....	1
Ko'chirma gaplar.....	1

Ko'chirma gaplarda tinish belgilarinmg ishlatilishi.....	1
Dialog va ularda tinish belgilarining ishlatilishi.....	1
Yozma ish va uning tahlili.....	2
Takrorlash 5 soat.	
Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari.....	1
Gap bo'laklari.....	1
Undalma, kirish so'zlar.....	1
Ko'chirma gaplar.....	1
Testlar ustida ishlash.....	1
Morfologiya 36 soat.	
So'z turkumlari. Mustaqil va yordamchi so'zlar.....	1
Ot. Atoqli va turdosh otlar.....	2
Kelishik qo'shimchalari.....	1
Sifat. Sifat darajalari.....	2
Son haqida tushuncha.....	1
Sonlarning yozilishi.....	1
Olmosh haqida tushuncha.....	1
Mustahkamlash darsi.....	1
Yozma ish va uning tahlili.....	2
Fe'l haqida tushuncha.....	1
Fe' 1 zamonlari.....	1
O'tgan zamon fe'li.....	1
Hozirgi zamon. Kelasi zamon fe'llari.....	2
Shaxs - son qo'shimchalari.....	1
Ravish to'g'risida tushuncha berish.....	1
Mustahkamlash darsi.....	1
Yozma ish va uning tahlili.....	2
Yordamchi so'zlar.....	1
Bog'lovchilar. Ko'makchilar.....	2
Yuklama haqida tushuncha.....	1

Undov va taqlid so'zlar.....	1
Mustahkamlash darsi.....	1
So'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari.....	1
Qo'shma so'zlar.....	1
Qo'shma so'zlar imlosi.....	1
Juft so'zlar va ularning imlosi.....	1
Takroriy so'zlar va ularning imlosi.....	1
Mustahkamlash darsi.....	1
Shuningdek 5 - sinf adabiyot darsligidan birinchi chorak uchun mo'ljallangan dars soatlarining taxminiy rejasini keltirish bilan ishning mazmunini ochishga harakat qilamiz.	
Ta'til taassurotlari bo'yicha suhbat.....	1
Adabiyot nima.....	1
Birinchi bo'lim hikmat durdonalari.	
Maqollar. Ibratli hikoyatlar.....	1
Imom al - Buxoriy. Hadislar.....	2
Konfutsiya hikmatlari.....	1
Taassurot yozish: Hikmatlar, hikoyatlar - yaxshilikka yetaklar.....	1
Ikkinchi bo'lim. Ertaklarning sehrli olami.	
"Uch og'ayni botirlar" ertagi.....	2
Susanbil.....	2
Sinfdan tashqari o'qilgan ertaklar bo'yicha suhbat.....	1
Hamid Olimjon "Oygul bilan Baxtiyor"	3
Ifodali o'qish musobaqasi.....'	1
Insho va uning tahlili "Mening sevimli ertagim", "Do'stlik buyuk ne'mat"	2
Shukrullo. "Umir haqida ertak"	2
Xans Kristian Andersen. "Bulbul"	3
(Qor malikasi kitobidan)	
Mustaqil o'qilgan asarlar va qo'shimcha topshiriqlar bo'yicha ma'lumot.....	1
Takrorlash.....	1

Test topshiriqlari asosida sinov.....	1
Ikkinchi o'quv choragi uchun mo'ljallangan dars soatlari taxminiy rejasi (22 soat). Ta'tilda o'qilgan asarlar bo'yicha suhbat.....	1

Uchunchi bo'lim. Afsonalar sadosi.

Mirkarim Osim. "To'maris"	3
Mirkarim Osim. "Shiroq"	3
Maqsud Shayxzoda. "Iskandar Zulqarnayn"	2
Chingiz Aytmatov. "Oltovlon va yettinchi"	4
Taassurot yozish. "Afsonalar mag'zidagi haqiqat"	1

To'rtinchi bo'lim. Mumtoz adabiyotga sayohat.

A.Navoiy. "Mahbub ul - qulubdan"	2
"A.Navoiy va biz" mavzusida suhbat.....	1
Zahiriddin Muhammad Bobur. Ruboiylar.....	2
Insho va tahlil. "To'maris mardona ayol", "Shiroqning jasorati"	3
Navoiy haqida bilganlarim.....	1
Takrorlash. Test asosida sinov.....	1

(Adabiyot. 5 - sinf darsligi).

Yuqorida keltirilgan ish dasturi asosida 5 - sinf o'quvchisining ish tajribasi, shuningdek pedagogik amaliyot davrida o'zlashtirgan tajribamizga amal qilgan holda sinov darsimizdan namuna keltirishni ma'qul ko'rdik.

Ot yuzasidan tushuncha.

Darsning maqsadi:

- amaliy maqsad - o'quvchilar ongida ot so'z turkumi bo'yicha bilim va malakalar hosil qilish;
 - tarbiyaviy maqsad - o'quvchilarni kasblarga mehr ruhida tarbiyalash;
 - rivojlantiruvchi maqsad - o'quvchilarni o'z kelajagi haqida o'ylashga o'rgatish.
- Darsning jihozi:** Mavjud ko'rgazmali qurollar, turli kasb egalarining portretlari, joylarning tasvirlari.

Darsning rejasi:

- Ot so'z turkumi va uning mazmuni, guruhlari.

2. Shaxs otlari.
3. Narsa - buyum otlari.
4. O'rin joy otlari.
5. Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanilishi.

O'qituvchi darsni o'quvchilarga ot mavzusi ustida berilgan uchta topshiriqni bajarishdan boshlaydi.

Turli xil so'zlarni aytib ularning ichida kim? nima? qayer - so'roqlariga javob bo'ladiganlariga e'tiborni qaratadi. Ularni uch guruhga bo'ladi.

1. Shaxs otlari: binokor, darvozabon, fazogur.
2. Narsa - buyum otlari: piyola, olma, kitob.
3. O'rin -joy otlari: gulzor, toshloq, Nurota.

Otlarning shaxs, narsa - buyum, o'rin -joy nomini bildirishini kim? nima? qayer? So'roqlariga javob bo'lishini ta'kidlaydi. Darslikdagi 213 - 218 -mashqlarni ishlash jarayonida (73 - 74 - bet) otlarning egalik va kelishik qo'shimchalarini olib turlanishiga alohida diqqatni qaratadi. 230 - mashqni bajarishda otlarning gapda qanday vazifada kelayotgani aniqlanadi. Namuna: Muhammadqodir Abdullayev (ega) 1973 yilda (hoi) Andijonning (aniqlovchi) Jalabek mavzusida (hoi) tug'ilgan (kesim).

Mashq shu tartibda o'quvchilarga bajartiriladi. 231 - mashqda esa berilgan. so'zlarni ko'plik shakliga aylantirish va ular ishtirokida gaplar tuzish so'ralgan. O'qituvchi quyidagi tartibda gap tuzib, o'quvchilarni faollikka yetaklaydi. M: shoirlar o'z she'rlaridan namunalar o'qib berishdi. Dars oxirida fikr - mulohazalar umumlashtirilib, 233 - mashq uyga vazifa qilib beriladi.

Namuna: Do'stlar (undalma) bu mening eng yaqin oshnam, tanishing (kesim). Ma'nodosh so'zlar: do'st, oshna. (5 - sinf o'qituvchilar uchun qo'llanma. 75 - 76 - betlar).

Bitirish ishimizning kirish qismida qayd etganimizdek, grammatikaning birinchi qismi morfologiya, mustaqil va yordamchi so'zlar, ularning tahliliga doir fikr yuritish nihoyatda katta hajmdagi mavzu bo'lganligini hisobga olib, ishning bu

qismida mustaqil so'z turkumlaridan ot va sifatni o'rgatishda o'quvchilarning mustaqil ishlari: mashqlar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, savol va topshiriqlar ustida ishlash muhim ilmiy - amaliy ahamiyatga ega. Ma'lumki, mashqlar to'plamini tuzishda amaldagi, hozirgi o'zbek adabiy tili rejasi asos qilib olingan. Mashq materiallari, shuningdek savollar va topshiriqlar, testlardan namunalar, badiiy asarlardan, gazeta va jurnallardan tanlab olingan, ba'zi misollar esa muallifning o'z tajribasidan keltirildi.

Ona tili darsligi asosida tuzilgan mashqlar to'plami M.Mirzayev tomonidan 1968 yilda birinchi nashri va 1984 yilda M.Mirzayev., Yu.Eshonqulovlar tomonidan tuzildi, nashr ettirilgan. Shuningdek R.Ikromova., K.Qosimovalar tomonidan ishlab chiqilgan. "O'zbek tilida mashqlar to'plami" pedagogika institutlarining pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi fakultetlari uchun qo'llanma sifatida nashr etildi³.

Fikrimizni umumta'lim maktablarining 5 - sinf] darsligi, oily o'quv yurtlari uchun yaratilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (Morfoloqiya), o'zbek tili darsliklariga tayangan holda yoritishga harakat qilamiz. Grammatika tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tilning grammatik qurilishiga xos qonun - qoidalarni tekshiradi, so'zning forma o'zgarishini, so'z birikmalari, gaplarning qurilishi va mazmuniga ko'ra turlarini o'rganadi.

Grammatika ikki qismdan - morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiya (grekcha morfe - shakl, logos - ta'limot) so'z haqidagi grammatik ta'limot bo'lib, so'zning morfologik strukturasi - morfemalar, morfologik kategoriyalar, so'zning formalar sistemasi, so'z formalarim hosil qilish yo'llari, vositalari, so'z turkumlarini o'rganadi.

Grammatik ma'no va grammatik forma. Har bir so'zning o'z (leksik) va grammatik ma'nosi bo'ladi (ko'z - leksik, ko'z - grammatik ma'nosi so'z turkumidan ot).

So'zning leksik ma'nosi lining predmet, belgi, harakat kabilar haqidagi tushunchani reallashtiradi. Masalan: Bulbul deganda biz parrandalarning bir turini

³ G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi Toshkent. 2001 yil. 63 bet.

tasavvur etamiz. Yaxshi so'zi orqali ijobiy xususiyat ma'nosini, o'qidim deganda harakat ma'nosini tushunamiz. Bular so'zning material (harakat) ma'nosidir. So'zning leksik ma'nosi (leksikologiyada) o'rganiladi.

Grammatik ma'no so'zning formal qismi orqali ifodalanadi. Masalan: Bulbulning so'zi qaratqich kelishigi affiksini olgan birlikdagi turdosh otdir. O'qidim so'zi esa o'tgan zamon, birinchi shaxs, birlikni ko'rsatuvchi fe'ldir.

Grammatik ma'no so'zning leksik ma'nosini o'zgartirmaydi. Grammatik ma'no affikslar, ba'zan yordamchi so'zlar orqali ifodalanadi. Demak, so'zning leksik ma'nosi o'zak - negiz orqali, grammatik ma'nosi ko'pincha affikslar orqali ifodalanadi. Grammatik ma'noning bunday formasi - Grammatik forma sanaladi. Masalan: o'qidim, o'qiding, o'qidi, o'qidik, o'qidingiz fe'llari o'qi so'zining formalaridir. Shuningdek, kitobni, kitobdan, kitobning, kitobga, kitobda kabilar esa kitob so'zining formalaridir⁴.

Grammatik ma'no bilan grammatik forma bir butunlikni hosil qiluvchi ajralmas birlik bo'lib, bular grammatik kategoriyani tashkil qiladi. Grammatik kategoriya turlicha bo'ladi: kelishik kategoriyasi, zamon kategoriyasi, son kategoriyasi kabi. Masalan: 1 - topshiriq. Quyida berilgan so'zlarning har biriga so'roq bering. Qaysi so'zlar so'roq olmayapdi? Daftar, yoki, keldi, yaxshi, ko'p., aqlli, kabi, o'rta, va, men, uchun, o'quvchi, bilan. 2 - topshiriq. Bu so'zlarning qaysi birlari bilan gaplarni boshlab bo'lmaydi? Buning uchun esa o'quvchi yoki talaba darslikda keltirilgan grammatik ta'rifni o'qib o'zlashtirgan bo'lishi talab etiladi. Biror so'roqqa javob bo'lib, ko'pincha atash ma'nosini bildiruvchi, gapda ma'lum bir gap bo'lagi yoki undalma vazifasida keladigan so'zlar mustaqil so'zlar sanaladi. So'roqqa javob bo'lmaydigan, atash ma'nosini bildirmaydigan so'zlar yordamchi (kabi, va, uchun, bilan) so'z turkumi deyiladi.

5 - sinf ona tili darsligida ot so'z turkumi mavzusiga 22 ta mashq berilgan. Bu mashqlarni tahlil qilish ishning hajmini kengaytirib yuborishini inobatga olib, mashqlarni tahlil qilishdan kuzatilgan maqsadni izohlab berishga harakat qilamiz. So'z turkumidan o'tni ifodalash uchun 229 - mashqning ayrimlari shartini keltirib

⁴ Mahmudov N., Nuraianov A. va boshqalar. Ona tili. 2 - nashri. 5 - sinf uchun darslik. Toshkent. 2007 yil.

ko'raylik. Gaplarni tuzing, undagi otlarni topib izohlang. Tuzgan gaplaringizdagi mavzuda otlarni ma'nosiga ko'ra guruhlarga bo'ling va ularning so'roqlarini aniqlang, - deyilgan. Namuna:

Shaxs otlari	Narsa - buyum otlari	O'rin-joy otlari
Rustam	Kurak	Buxoro, Yangiqo'rg'on

Otlarda egalik.

Otlarga qo'shilib, predmet yoki predmetlik tushunchasining uch shaxsdan biriga taalluqligini, qarashligini ko'rsatuvchi affikslar egalik affikslari deyiladi. Egalik affikslari predmetning uch shaxsdan biriga taalluqliligi jihatidan uchga, birlik va ko'plik sonlarga ko'ra ikkiga bo'linadi.

Buni quyidagi sxemada ko'rish mumkin.

Shaxs	Birlik		Ko'plik	
	Unlidan so'ng	Undoshdan so'ng	Unlidan so'ng	Undoshdan so'ng
I Shaxs so'zl.	ona-m ona - ng	baxt - im baxt -	ona-m ona -	baxt - im baxt -
II Shaxs tingl.	ona - si	ing baxt - i	ngiz ona - lari	ingiz baxt - lari
III Shaxs o'zga.				

Mashqlar tahlilini davom ettiramiz:

20 - mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlardagi ko'plik, egalik va kelishik affikslarining tarkibiga diqqat qiling.

So'ngra egalik affiksini olgan ot qaysi shaxs, son va kelishikda kelganligini ayting (og'zaki).

Nuqtaning qudrati.

Alisher Navoiy o'z g'azallarini zamonasining eng bilimdon hattotlariga ko'chirtirar edi. O'zini mashhur hattot deb hisoblovchi bir kishi: "Rozi bo'lsalar, men ham Navoiy janoblarining xizmatlarini jonim bilan bajarardim", - dedi.

Alisher bu gapni eshitib, haligi kishiga o'z she'rlarini ko'chirishga berdi. Oradan ko'p o'tmay katta bir mushoirada "Malikul - shuaroning o'zlari nuqsonga yo'l

qo'ygach, boshqalardan nima kutish mumkin", degan gap tarqaldi. Gap nimadiligini fahmlagan shoir boyagina ko'chirtirilgan g'azallarini o'qib ko'rsa, hamma yoq g'ij - g'ij xato.

Maqtanchoq hattot tushmagur "ko'z" so'zidagi "z" harfida bir nuqtani tushirib qoldirganidan, bu so'z "ko'r" bo'lib qolgan, va she'r ma'nosi butunlay buzilgan edi.

Navoiy ahli fozillarga qarab:

- Ko'zimni ko'r qilganlar ko'r bo'lsin, - dedi - da, "mashhur" hattotga javob berib yubordi. (Allomalar ibratidan).

Otlarning yasalishiga doir.

O'zbek tilida otlar boshqa so'z turkumlariga nisbatan yangi so'zlar hisobiga tez boyib turadigan kategoriyadir.

O'zbek tilida ot:

a) Morfologik; b) sintaktik usullar bilan yasaladi. **Morfologik usul bilan ot** yasash.

Bu usulda so'z negizida maxsus ot yasovchi affiks qo'shish bilan yasama ot hosil qilinadi. Affiks qo'shish yordamida yasalgan otlar tubandagi asosiy ma'no guruhlariga bo'linadi:

1. Shaxs oti yasovchilar. Asosan ot negizlariga qo'shilib, quyidagicha shaxs otlarini yasaydi: ishchi, ovchi, yozuvchi, suvchi, terimchi, kabi;

- dosh affiksi negiz anglatgan predmet, belgi tufayli boshqa bilan birga bo'lgan shaxs otini yasaydi: yashash, ishlash, o'qish, o'rni bir bo'ladi: vatandosh, sinfdosh, kursdosh kabi;

- kash affiksi "tortuvchi ma'nodagi ot yasaydi": negiz ma'nosidagi predmetni yurgizuvchi shaxs otini yasaydi: tuyakash, jafokash, aravakash, mehnatkash kabi.

- bon affiksi negiz anglatgan predmetni saqlovchi yoki shu predmetga qarovchi shaxs otini yasaydi: bog'bon, sarbon, darvozabon kabi.

- boz affiksi negiz anglatgan predmet bilan ko'p shug'ullanuvchi yoki shu predmetni boquvchi, o'ynovchi, sevuvchi shaxs otini yasaydi: kaptarboz, dorboz, bedanaboz kabi.

- paz affiksi negiz anglatgan ovqatni pishiruvchi shaxs otini yasaydi: oshpaz, somsapaz, kabobpaz kabi.
- dor affiksi negiz anglatgan predmetga ega bo'lgan shaxs otini yasaydi: chorvador, aybdor, bog'dor, mulkdor, hosildor kabi.
- shunos affiksi negiz anglatgan soha bilan shug'ullanuvchi shaxs otini yasaydi: tilshunos, sharqshunos, adabiyotshunos kabi. Shuningdek, - xon, - soz, -do'z, - gar,
- (kar) affikslari orqali ham shaxs oti yasaladi: kitobxon, soatsoz, stanoksoz; do'ppido'z, etikdo'z, zargar, kimyogar, miskar kabi.

Buyum - narsa oti yasovchi qo'shimchalar va ularning yozilishi.

- gich (- kich, - qich, - gich): tish kovlagich, ko'rsatkich, chizgich.
- gi (- ki, - qi, - yog'i): supurgi, tepki, tutatqi, chalg'i, - k, - ak: kurak, elak, tilak.
- iq, - ik: chopiq, topshiriq, teshik, - iq qo'shimchasi u yoki yu bo'lganda uq tarzida aytiladi, shunday yoziladi: uchuq, yutuq, tuyuq kabi.
- ma: to'qima, bo'g'ma, bosma.
- m, - im: to'plam, tishlam, kiyim. Im qo'shimchasi o'zakda u yoki yu . bo'lgan hollarda - um tarzida aytiladi va shunday yoziladi: quit - qultum, un - unum, yut - yutum; y bilan tugagan o'zaklarga - um qo'shilsa, - y, u - o'rniga - yu yoziladi: quy - quyum, uy - uyum kabi.

Yuqorida alohida qayd etilgan mavzuga doir ona tili darsligida 19 ta mashq berilgan bo'lsa, ularni tahlil qilish, o'quvchi va talabalarning olgan nazariy bilimlarini amaliy mashg'ulot orqali mustahkamlash o'qituvchi oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi. Buni amalga oshirishda olib boriladigan mustaqil ishlar, har bir mavzuni mustahkamlash maqsadida uy ishlarining roli nihoyatda kattadir⁵.

Ona tilidan uyga berilgan ba'zi topshiriqlardan namunalar keltiramiz: 259 - mashq. Ko'chiring. Qo'shma otlarni topib, tagiga chizing.

O'quvchilar mingoyoq, tillaqo'ng'iz, xonqizi, beshiktervatar, va boshqa hashoratlardan kolleksiya tuzdilar.

Surxondaryo oblastida qorako'l terisi ham tayyorlanadi.

⁵ To'qliyev B. va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent. 2006 yil. 120 - bet

Oltinsoy darasida yerlar yap - yalang'och toshdan iborat edi.

Biz turgan yerdan azim Sirdaryoning kumush to'ni yarqirab ko'rinib turadi. Namozshomgul bilan sadarayhon, gulbeor bilan gulhamishabahor ham bir -biridan ko'rimli.

U ko'zoynagini yaxshiroq o'rnatib qo'ydi. Yana bir misol: Topshiriqlarni bajaring.

1. Kichraytirish, erkalash otlarini qatnashtirib ikkita gap tuzing.
2. Kulib, bino, tol otlariga egalik qo'shimchalarini qo'shing.
3. Birgadir, qishloq otlarini kelishik qo'shimchalari bilan turlang (birgadirimizni, qishloqning).
4. Shaxs oti yasovchi, buyum - narsa oti yasovchi, uy - joy oti yasovchi qo'shimchalar bilan yasalgan otlarning har biriga 2-3 tadan misol yozing.
5. Qo'shma ot bilan ifodalangan atrof - tevaragingizdagi joy nomlarini ayting. (Oqtepa, Chimqo'rg'on).

Ishning shu qismida mustaqil so'z turkumida sifat va uning ifodalanishi yuzasidan fikr yuritimiz. Sifat so'z turkumini yuzasidan darslikda berilgan mustaqil ish (mashqlar, savollarga javoblar, matn ustida ishlash) lar tahlili yuzasidan fikr yuritishga harakat qilamiz.

Darslikda bu mavzu bo'yicha ikkita topshiriq berilgan. 1 - topshiriq. Matnga sarlavha toping .

Go'zal xulq deganda nimani tushunishingizni so'zlab bering.

2 - topshiriq. Sifatlarini tushirib, matnni o'qib ko'ring. Qanday farqni sezyapsiz? Shundan kelib chiqib, sifatlarning nutqdagi (gapdagi) ahamiyati haqida gapiring.

O'quvchilar mustaqil fikr yuritish orqali topshiriqni bajaradilar. Bu xil topshiriqlarni bajarish uchun o'qituvchi guruhga bo'lib ishlashi ham mumkin. Shundan so'ng o'qituvchi qanday? qanaqa so'roqlariga javob bo'lib, narsa - buyumning belgisini bildirgan so'zlarga sifat deyiladi. Belgi deganda rang - tus, maza - ta'm, shakl - hajm, xil - xususiyat kabilar tushuniladi degan grammatik ma'rifni o'quvchilar daftariga yozdiradi. Shu yuzasidan 247, 248 - mashqlarni mustaqil bajarishga topshiradi.

O'qituvchi darslikda keltirilgan savol va topshiriqlarni bajartirish orqali ular bilimini mustahkamlaydi. Namuna: Sifat deb qanday so'zlarga aytiladi va ular qanday so'roqlarga javob bo'ladi⁶?

Sifatlar asosan, qaysi gap bo'lagi vazifasida keladi? 249 - mashq. Uyga topshiriq. Rang bildiruvchi sifatlar ishtirok etgan to'rtta gap tuzing. Ularning qanday gap bo'lagi vazifasida kelganligini ayting. Yuqorida eslatib o'tilgan o'qituvchining taxminiy ish rejasiga asoslanib, sifat so'z turkumining mazmunini o'quvchilar ongiga yetkazish maqsadida bir soatlik dargiamunasini keltiramiz.

Sifat.

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad - sifat so'z turkumi haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad - milliy qadriyatlarni ulug'lash hislarini tarbiyalash;
- v) rivojlantiruvchi maqsad - gapning tarkibida sifat so'z turkumini qo'llay olish malakasini rivojlantirish.

Darsning jihozi: Qish manzarasi aks ettirilgan peyzaj manzarasi.

Dars rejasi:

1. Sifat haqida ma'lumot.
2. Sifatning gapdagi vazifasi.

Dars boshlangacha, o'qituvchi kuz manzarasi aks ettirilgan rasmga o'quvchilar diqqatini tortadi. Ularga tasviriy ifodalash uchun so'zlar topish buyiriladi. O'quvchilar quyidagicha so'zlarni aytish mumkin: qish, go'zal, oppoq, qor, quvonch, bolalar va boshqalar. Shundan so'ng ularga kichik matn tuzish topshiriladi. Birinchilardan bo'lib topshiriqni bajarib bo'lgan 2-3 o'quvchining matni o'qitiriladi va baholanadi.

O'quvchilarga quyidagi savol va topshiriqlar beriladi:

1. Matningizda belgi bildiruvchi so'zlar bormi?
2. Ular qanday so'zlarga javob bo'ladi?

⁶ Ziyodova T.U. Ona tili O'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. Toshkent. 2002 yil. 62-bet

3. Rang bildiruvchi so'zlarga misol keltiring.
4. Hajm - o'lchov bildiruvchi so'zlarni ayting.
5. Maza - ta'm bildiruvchi so'zlarga misol keltiring.

O'quvchilar javobidan so'ng nazariy ma'lumotlar berilishi mumkin. 246 - mashqda berilgan matn o'qitiladi. Unda qatnashgan sifat so'z turkumiga oid so'zlarni ko'rsatib o'tadilar. So'ngra 1 - va 2 - topshiriqlar ham bajartiriladi. O'quvchilar sifatning nutqdagi ahamiyati haqidagi o'z mulohazalarini aytib o'tdilar. 247 - mashqda misollar topib, sifatlarni turlari bo'yicha ajratadilar.

Rang - tus	Maza-ta'm	Shakl - hajm	Xil - xususiyat
Qizil	Shirin	Mayda	Silliq

Sifat gapda otga bog'lansa, aniqlovchi, gapning oxirida kelsa kesim vazifasini bajaradi. Masalan: Bu ko'rkam bino - kasb - hunar kolleji. Bu gullar xushbo'y. Darslikda berilgan savol va topshiriqlarga o'quvchi diqqatini qarataylik.

1. Sifat deb qanday so'zlarga aytiladi va ular qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
2. Belgi deganda qanday ma'nolar tushuniladi? Har biriga misol keltiring.
3. Sifatlar asosan, qaysi gap bo'lagi vazifasida keladi?

O'quvchilar yuqorida keltirilgan ta'rif va sxemadan foydalanib, savollarga og'zaki javob qaytaradilar. Shundan so'ng o'qituvchi 249 - mashqni uyda bajarib kelishga buyuradi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, hozirgi o'zbek adabiy tilida mashqlar to'plami M.Mirzayev tomonidan tayyorlanib, "O'qituvchi" nashriyotida 1968 yilda va shu nomdagi ish yana M.Mirzayev, Yu.Eshonqulov tomonidan 1984 yilda qayta tahrir qilib, nashr etildi.

Umumta'lim maktablarining 5 - 6 - sinflari uchun ona tilidan mashqlar to'plami yaratilgan emas. Yuqorida eslatib o'tganimizdek olimlar R.Ikromova, K.Qosimovalar "O'zbek tilida mashqlar to'plami" kitobini nashr ettirdilar. Bu mashqlar to'plami ham pedagogika institutlarining pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi, defektologiya fakultetlari uchun mo'ljallangan. Bunday o'ylab

qaralsa boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ham bu singari qo'llanma hozirgacha yaratilmagan.

Bitirish ishimizning bu qismida mustaqil so'z turkumidan ot, sifat yuzasidan darslik va qo'shimcha manbalarda keltirilgan grammatik qoidalarga mos mashqlar ustida qanday ishlash kerakligi, mashqlar tahlili orqali o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil ishlashga yunaltirilgani haqida fikr yuritishga harakat qildik.

Agar qo'llanmada keltirilgan mashqlar tahliliga qaraydigan bo'lsak, jumladan ot - to'g'risida 138 - 167 - mashqlar berilgan, jami 30 ta bo'lib, ularni bajarish yo'llari mashq talabidan kelib chiqqan holda bajarilgan. Masalan: 167 -mashq. Tekstni ko'chiring. Otlarni aniqlang. Har bir otga namunada ko'rsatilganidek umumiy morfologik xarakteristika bering.

Namuna: Bo'stonliq - atoqli ot, birlik sonda, o'rin kelishigida, soda ot, o'rin - joy otini yasovchi - lik qo'shimchasi orqali Bo'ston so'zidan yasalgan.

Bo'stonlikda mevalilikni rivojlantirishning istiqboli katta. Xumson, Sijjak, Xo'jakent, Burchmulla, Bog'iston va Nanay qishloqlaridagi mirishkor bog'bonlar o'rik, olma, gilos, olcha, olxo'ri, shaftoli, bodom, yong'oq, behi, jiyda kabi mevalardan doimo yuqori hosil olib kelishadi. Bu bog'larda iqlim qulayligi va bog'bonlarimizning mehnati bilan bunyodga kelgan turli xil mevalar - oq, oqpar, qantaki, zog'ora o'riklari deysizmi, nok - nashvatilar, pista, bodom deysizmi - hammasi bor. Ulug' bobom I.V.Michurin "daraxt - kombinat" deb atagan yong'oq bu yerda juda ko'p.

Sifat so'z turkumi yuzasidan esa 168 - 186 - mashqlar berilgan. O'qituvchi o'quvchilarga mashqlarni mustaqil og'zaki, yozma tarzda bajarishini ta'minlashga yo'naltirish talab etiladi. Masalan: 169 - mashq.

Sifatlarning ot yoki fe'l bilan birikib kelganligini aniqlang va ularning gapdagi vazifasini izohlang, - deyilgan.

Namuna: A.Navoiy 3-4 yoshidan boshlab jiddiy, go'zal she'rlarni yodlagan. A.Navoiy - ot, atoqli ot; uch - to'rt - son, sanoq son; yosh - ot, - dan -chiqish kelishigi; bosh - ot, - lab - ravish: jiddiy, go'zal - sifat, asliy sifat; she'r -ot, - lar -

ko'plikda, - ni - tushum kelishigi; yod - ot, - lagan - sifatdosh kabi. (Mashqlar to'plami, 57 - bet).

O'qituvchi so'z turkumidan sifat mavzusini o'quvchilar ongiga yetkazishda 168 - 186 - mashqlar ustida mustaqil ish yuritishga e'tibor berishi zarur.

Ikkinchi qism.

Son - so'z turkumi to'g'risida tushuncha.

Bir xildagi predmetlarning son - sanog'ini, tarkibini bildirib, necha? nechanchi? nechta? qancha? kabi so'roqlardan biriga javob bo'ladigan mustaqil son deyiladi. Masalan: O'nta qalam, birinchi kurs, oltinchi brigada kabi. Son odatda otga bog'langanda, uning miqdorini, bog'lanmaganda esa uch, to'qqiz kabi mavhum tushunchalarni ifodalaydi. Sonlarning sanoq va tartib son kabi turlarga bo'linishini uni boshqa so'z turkumlaridan ajratib turuvchi morfologik belgisidir.

Son boshqa so'z turkumlariga, xususan, ot, sifat, fe'llarga nisbatan o'zbek tili lug'at sostavida ozchilikni tashkil etadi. Aktiv ishlatiladigan tub sonlar 22 ta: bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yeti, sakkiz, to'qqiz, o'n, yigirma, o'ttiz, qirq, ellik, oltmish, yetmish, sakson, to'qson, yuz, ming, million, milliard.

Son harf bilan ham, raqam bilan ham ifodalanadi. O'zbek tilida ikki xil raqam - arab (5,30,72..) va rim (V, X, XXII) raqamlari ishlatiladi.

O'qituvchi mavzuni mustahkamlash maqsadida qo'llanmada berilgan 187 — 196 - mashqlardan foydalanadi. Masalan: 188 - mashq. Ot o'rnida kelgan sonlarni ko'rsating. Ularning gapdagi vazifasini aniqlang.

1. Birning kasofati mingga tegar, mingniki tumanga (maqol). Oltovlon ola bo'lsa - og'zidagini oldirar, to'rtovlon tugal bo'lsa, tepadagini o'ndirar (maqol).
2. Ikkovi otliq ancha gaplashib turgandan keyin, biri qishloq tomonga ketdi, ikkinchisi orqaga qaytdi. Ikkovi ham tezda ko'rinmay ketdi.
3. Ikki narsa og'ir ko'nglimga asli, Ikki narsa uchun yo'q menda bardosh: Biri dushmanning shodon qahqahasi, Biri do'st yuzidan oqqan alam yosh.

Sonlarda quyidagicha xususiyat mavjud:

1. Ot oldida kelib, uning miqdorini, sanog'ini aniqlash uchun xizmat qiladi. Bunday vazifa sonning asosiy morfologik xususiyatini - turlanmasligini belgilab qo'yadi: yuz qismi, ikki soat, o'q kilogramm kabi.

2. Son otsiz, o'zi mustaqil ishlatilsa, ot kabi kelishik affikslerini olishi, kesim bo'lib kelsa, tuslovchi affiks olishi mumkin: ikkini ikkiga qo'sh.

O'zingiz ikkitasiz - u, o'ntaga tatiydigansiz - da kabi.

3. Son yasaydigan maxsus affikslar yo'q. Demak boshqa so'z turkumidan son yasalmaydi.

4. Sonlarning turli modal formalarini hosil qilish uchun ayrim forma yasovchi affikslar bor. Bunday (- nchi, - ov, - ala, - ta, tacha kabi) affikslar faqat sonlarning o'zigagina qo'shiladi: beshovlon, beshinchi, bola, to'rtala o'g'lon kabi.

5. Ba'zan son bilan ot orasida maxsus sanoq sonlar (numerativlar) ishlatiladi: besh tonna paxta, o'n metr chit kabi.

Sonlar tubandagi sintaktik vazifasida keladi:

1. Ot oldida kelgan son sifatlovchi vazifasini bajaradi: fermaga beshta yangi traktor olindi.

2. Fe'l oldida kelgan son hoi vazifasini bajaradi: Tansiq ertaga beshovlon raisga borib, bu masalada yordam so'rashini taklif etdi.

3. Ot yoki fe'lga tobe bo'lmasa, son gapda ega, to'ldiruvchi, qaratqich vazifasini bajaraveradi: To'rtidan ikkini olsak, ikki qoladi. Uch karra uch to'qqiz. O'nning yarimi besh.

Son so'z turkumini mustahkamlash yuzasidan mashqlar kitobida o'nta mashq berilgan. 195 - mashq.

Tablitsani daftaringizga chizing, ikkov, ikkala jamlovchi sonlarini ko'plik sondagi uch shaxs bo'yicha o'zgartirib yozing.

Shaxslar	Jamlovchi son (I variant)	Jamlovchi son (II variant)
I Biz	Ikkov Ikkov ikkov	Ikkala Ikkala ikkala
II Siz		
III Ular		

O'qituvchining tuzgan kalendar ish dasturidan foydalanib, bir soatlik darsning namunasini keltiramiz.

Sonlarning yozilishi. Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad - o'quvchilarda sonlarning yozilishi bo'yicha bilim va ko'nikmalar hosil qilish;

b) tarbiyaviy maqsad - o'quvchilarni umum - insoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash;

v) rivojlantiruvchi maqsad - o'quvchilarda har bir ishni hisob - kitob bilan

bajarish tuyg'usini shakllantirish. **Darsning rejası:** 1. Sonlarning arab va rim raqamlari bilan yozilishi.

2. Sonlarga qo'shimchalar qo'shilganda ularning yozilishi. O'qituvchi mavzu ostida berilgan 1 - va 2 - topshiriqlarni bajartirish orqali sonlarning yozilishi haqida dastlabki tushunchalarni beradi.

1. Harf bilan yoziladi: ikkovi, beshta, yuzinchi.

2. Arab raqami bilan yoziladi: 2003 yil, 21 iyul, 26 - uy.

3. Rim raqami bilan yoziladi: XX asr, X bob, V bosqich.

So'zlarning yozilishida e'tiborga molik bo'lgan o'rinlardan biri shundaki, ikki, olti, yetti sonlariga jamlovchi sonni hosil qiluvchi qo'shimchalar qo'shiladi, ularning o'zagida tovush tushishi hodisasi ro'y beradi: ikkovi, oltovi, yettovi, yettovlon kabi.

O'qituvchi bu hodisaga alohida urg'u berishi lozim. 257 - 259 - mashqlarni bajarishda yuqoridagi fikr - mulohazalarga asoslanib ish ko'riladi. Mashqlarni bajarish jarayonida sonlarning sintaktik vazifasiga ham e'tibor qaratiladi. 258 - mashq asosida esa o'qituvchilarning og'zaki nutqi rivojlantiriladi⁷. 259 - mashq uyga topshiriq. Sonlarga qavs ichidagi qo'shimchalarni qo'shib ko'chiring. Tartib sonlarni raqamlar bilan yozing: Pahlavonning ikkinchi kuni madori qolmadi. Hilola qirq (inchi) uy, yigirma (nchi) xonadonda yashaydi, kabi.

Sonlar ma'no grammatik xususiyatlariga ko'ra ikki katta guruhga bo'linadi: miqdor sonlar, tartib sonlar. Miqdor sonlar to'rt turli bo'ladi: 1) sanoq sonlar; 2) chama sonlar; 3) jamlovchi sonlar; 4) kasrli son. Uch, besh, o'nta, uchtdan kabi

⁷ G'ulomov A., Qodirova M. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent? "Universitet" 2001. 96-bet

sonlar sanoq son; o'ntacha, yuzlab, minglab, besh - oltita kabilar chama son; ikkovimiz, uchalamiz kabilar jamlovchi son; uchdan bir, beshdan uch kabilar esa kasr sonlar hisoblanadi.

Tartib sonlar bir xil predmetlarning, narsa - hodisalarning tartibini bildiradi va - nchi (- inchi) affiksi orqali yasaladi.

Masalan: Men beshinchi sinfda o'qiyman kabi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ona tilimizga davlat maqomi berilgandan keyin (21.X. 1989 y) keyin xalq ta'limi vazirligi, oily o'quv yurti tilshunos va adabiyotshunos olimlarning tashabbusi bilan 1991 yildan so'ng o'tkazib kelinayotgan ota tili doimiy anjumani katta ta'limiy - amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. 1997 yil Toshketnda o'tkazilgan "Ta'lim jarayonida matn ustida ishlashning asosiy omillari" mavzusidagi yig'ilishda muhim masalalar muhokama qilindi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

Bitirish ishimizda yuqorida eslatilgan materiallardan ijodiy foydalanishga harakat qildik. Sirdaryo tuman 24 - maktab o'qituvchisi B.Yoriyeva ona tili darslarida matn ustida ishlash haqida fikr yuritar ekan, o'rinli va to'g'ri fikrlarni bay on qiladi. "Matn nutqning yozma shakli ifodasi. U bir necha gaplarning birikishidan hosil bo'ladi. U "She'riyat ko'ngil ermagi emas", shaklidagi beshta so'zning mazmunan birikishidan tortib, hikoya, qissa, romonlar ham matn sanaladi. Matn ma'lum - voqea - hodisani ifodalaydi, insonning nozik ko'ngil kechinmalarini, tuyg'ularini ifodalaydi, tinglovchiga so'zlovchining munosabatini yetkazadi.

Ona tili darslarida o'quvchilar tomonidan yaratiladigan matnlardan, qismlardan tashkil topadi. Maktab amaliyotida matnning tasvir, rivoya, muhokama usullaridan foydalaniladi", - degan fikrlarini bevosita ma'qullash mumkin.

O'qituvchi o'zining dars rejasiga amal qilgan holda, mavzuga doir matn tuzish ustida o'quvchilar bilan doimoishlashi - ularning yozma nutqini o'stirish, so'z boyligini oshirishga yo'naltirishi zarur.

Olmosh so'z turkumi.

Topshiriq. Quyida berilgan gapda - u - so'zi qaysi so'z o'rnida almashib kelayotganini ayting.

Uyga qaytayotganimizda u mendan xafa bo'ldi.

Ot sifat, son va boshqa so'zlar o'rnida qo'llanib, ularga ishora qiluvchi so'zlar hisoblanadi.

Olmosh qaysi so'z o'rnida qo'llansa, o'sha so'zning so'rog'iga javob bo'ladi. O'qituvchi mavzuni tushuntirishda, avvalo darslikda berilgan 260 — 261 — 262 - mashqlarni tahlil qilish yo'li bilan ish boshlaydi. Masalan: 261 - mashq. Nuqtalar o'rniga gap mazmunidan kelib chiqib, mos keladigan olmoshlarni qo'ying. Bu olmoshlar qaysi so'z turkumi o'rnida qo'llanganligini aniqlang. Namuna: Uning beshta kitobi bor yana shuncha bo'lsa o'nta bo'ladi.

1. Men, Bahodir, Elbek, Hilola bog'ga bordikU yerdan kech qaytdik. 2. Uning ko'ylagi yashil ekan... rang menga ham yoqdi. 3. Ziyoda bilan Durдона yaqin dugona ... beshinchi sinfda o'qiydi.

Olmoshlar turlanadi, gapda ko'pincha ega, to'ldiruvchi va aniqlovchi bo'lib keladi. Masalan: majlisga hamma keldi: Direktor hammamizni tabrikladi. Sen qancha kitoblar o'qiding?

Olmoshlarning kishilik, ko'rsatish, so'roq, belgilash, o'zlik, bo'lishsizlik, gumon kabi turlarga bo'linishi uning o'ziga xos morfologik xususiyatini ko'rsatadi. Olmoshlarning kelishiklar bilan turlanishi. Olmoshlar ham otlar kabi kelishiklar bilan turlanadi. So'roq, belgilash, o'zlik bo'lishsizlik, gumon olmoshlari kelishiklar bilan turlanganda, o'zak deyarli fonetik o'zgarishga uchramaydi. Lekin men, sen, u kabi kishilik olmoshlari qaratqich va tushum kelishigi affikslarini qabul qilganda, odatda bitta - i - tushib qoladi. Men + ni -meni; men - ning - mening kabi. U, bu, shu, o'sha kabi ko'rsatish olmoshlari jo'nalish, o'rin - payt, chiqish kelishigi qo'shimchalarini olganda, aksincha, bir - i - tovushi orttiriladi: u + ga; unga, bu + da; bun + da, shu + da; shun + da, o'sha + ga; o'shanga - ga kabi⁸.

⁸ Улуқов Н.М. ва Ғойибназарова Н.Р. Она тили 6-синф ўқувчмлари учун методик қўлланма. – Тошкент, 2005. 111- bet

Kishilik olmoshlari.

Kishilik olmoshlari shaxslarga nisbatan ishlatiladi. Uch shaxs, birlik va ko'plikni bildiradi.

1. Kishilik olmoshlari egalik affiksarisiz qo'llanadi. Masalan: So'zlovchi mening fikrimcha deyish o'rniga bizning fikrimizcha, bu ishni men bajardim deyish o'rniga biz bajardik deb maqtanishi yoki kamtarlik qilish mumkin. Kishilik olmoshlari oldin ko'plik, keyin kelishik affiksini qabul qiladi: bizlarning, sizlarning, ularning.

2. Ko'rsatish olmoshlari. Bunday olmoshlar predmet yoki shaxslarni ko'rsatish uchun ishlatiladi. Bularga bu, shu, u, o'sha, ana, mana (bul, shul, o'shal) kabi olmoshlar kiradi.

Ko'rsatish olmoshlari ma'nosi, qo'llanish xususiytiga ko'ra bir - biridan ma'lum darajada farq qiladi. Chunonchi, bu olmosh so'zlovchiga eng yaqin predmetni ko'rsatsa, o'sha olmoshi so'zlovchiga nisbatan uzoqroq bo'lgan predmetni ko'rsatish yoki eslatish uchun ishlatiladi:

Bu hurmat, bu muhabbat, bu mehr - oqibat. O'sha gul payvand qilingan terakni uch marta kinoga olishdi.

Ko'rsatish olmoshlari mana, ana so'zlari bilan birga qo'shima holda ishlatiladi: mana shu, ana shu kabi.

3. So'roq olmoshlari. Bunday olmoshlar predmetning kimga qarashli ekanligini, belgi miqdor haqidagi so'roqni bildiradi. So'roq olmoshlari otlarga, sifat va ravishlarga, shuningdek, miqdor bildiruvchi so'zlar - sonlarga nisbatan so'roqni ifodalaydi.

Masalan: kim? nima? so'roqlari otlarga qaysi? qanday? so'roqlari sifat va ravishga, qancha? nechanchi so'roqlari songa nisbatan qo'llanadi. Darslikda bu qoidalarni mustahkamlash maqsadida mashqlar berilgan. O'qituvchi o'quvchilar hamkorligida mashqlarni tahlil qiladilar: Bu o'lkada kim kuchliroq "El qatori

yeyarga nomi, kiyarga kiyimini topib tursa yana nimaga kuyinaverasiz", - deb turgani ustidan chiqdi.

4. Belgilash, jamlash olmoshlari. Bunday olmoshlar predmetlarni yoki uning belgisini jamlab, yakkalab, ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladi: Hamma, barcha, bari, ba'zi; har kim, har nima kabi olmoshlar belgilash olmoshlari hisoblanadi. Bu mavzuni mustahkamlash uchun 125 - mashq berilgan. Mashq sharti quyidagicha. **Gaplarni ko'chirib, olmoshlarni tahlil qiling.**

1. Belgilash - jamlash olmoshlarini ajratib, ularning gapdagi vazifasini tushuntiring. Namuna: Hammaning ko'zi uning qo'lidagi lolada. Odamlarda har xil havas, ishqibozlik bor.

Mashq mustaqil bajarilgach, o'qituvchi ular ishini ko'zdan kechirib rag'batlantiradi.

5. O'zlik olmoshi. Shaxs yoki predmetni aniqlab, yakkalab ko'rsatish uchun ishlatiladigan o'z so'zi o'zlik olmoshi sanaladi. Masalan: o'z uyim, o'lan to'shagim. O'zini bilmagan, o'zgani bilmas.

O'zlik olmoshi bosh kelishik formasida egalik bilan turlanib, turli shaxsni ko'rsatishi mumkin. Masalan: Men (ing) o'zim, sen (ing) o'zing, biz (ning) o'zimiz kabi.

Masalan: Dunyo g'azab ko'rinar menga, O'zi qancha eski bo'lsa ham.

Gar gunoh orttirsang o'zingga og'ir.

6. Bo'lishsizlik olmoshi. Bunday olmoshlar mavjud bo'lmagan predmet, belgi miqdorini umumlashtirib ko'rsatadi. Bo'lishsizlik olmoshlariga hech kim, hech nima, hech qanday, hech qancha, hech narsa, hech bir kabi olmoshlar kiradi. Bo'lishsizlik olmoshlariga affikslar quyidagi tartibda qo'shiladi: oldin ko'plik, so'ng egalik, keyin kelishik affiksi keladi: hech nimalaringni, hech narsalaringni kabi.

7. Gumon olmoshlari. Bunday olmoshlar nutq protsessida mavjud bo'lgan, ammo so'zlovchi uchun noaniq, noma'lum bo'lgan predmet yoki belgini ko'rsatadi. Uning ma'nosi kontekstdan ham anglashilmaydi.

Gumon olmoshlariga - dir, - alia, - ov, - oz, kabi elementlar qo'shilishi orqali yasalgan olmoshlar kiradi: kimdir, nimadir, birov, biron, biror, allakim, allanarsa

kabi. Gumon olmoshlari asosan sifat va ot xarakterida qo'llanadi. Masalan: uni yuzi oriq, rangsiz, burni qirra, chuqur botgan katta ko'zlarining oqi allaqanday moviy edi.

Kimdir senga chuqur tulpor egarlar.

1. Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari.

Olmoshlar tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma bo'ladi. Sodda olmoshlar birgina negizdan tashkil topadi. Masalan: men, sen, u, biz, siz, o'z, ba'zi,' kim, nima kabi.

Ba'zi sodda olmoshlar yasama bo'ladi: birov, kimdir, biror, biron kabi.

Qo'shma olmoshlar kamida ikki o'zakdan tashkil topadi. Masalan: allakim, allanima, allaqanday, allaqaysi, allaqancha, hech kim, hech narsa. Ba'zan olmoshlar juft holda ham qo'llanadi: shu - shu, o'sha - o'sha. Mavzuni mustahkamlash maqsadida 131- mashqni mustaqil bajarish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan: Qaysi birini.

Odamlar o'ldilar, bir vaqt, bir zamon, o'ldilar eng oddiy baxtdan ham yiroq.

Olmoshlarning sintaktik vazifasi.

Olmoshlar gapda quyidagi vazifalarda qo'llanadi:

- a) ega: seni mehnat yengmasin, sen mehnatni yeng.
- b) to'ldiruvchi: Ularning shoxlariga qaysi yili o'sgani haqida tush bilan yozilgan qog'ozlar ilib qo'yilgan.
- v) kesim: Butun gap shu ustod.
- g) nega kelmadingiz?

Sinfda mustaqil bajarish, olmoshlarni topib, gapdagi vazifasini ko'rsatish yuzasidan 134- mashq berilgan.

Namuna: Har yerni qilma orzu, har yerda bor toshu - tarozi.

U ona bo'lishdan behad shod.

Bu gapni hazilga yo'yish uchun Sidiqjon ham kuldi.

Yozma ish va uning tahlili.

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad - nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish malakalarini tekshirish va baholash;

b)tarbiyaviy maqsad - buyuk bobokalonlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash;

1. v) rivojlantiruvchi maqsad - o'quvchilarning yozma nutqini o'stirish.

Yozma ish turi sifatida bayon tanlashi mumkin. Tanlangan matn 2-3 marotaba ifodali o'qib beriladi. Mazmuni ayrim o'quvchilardan so'faladi. O'quvchilar har biri o'zi reja tuzadi. Quyida namuna sifatida matn tavsiya etiladi. O'qituvchi keying darsda yozma ishning tahlilini o'tkazadi. O'quvchilar bilimi baholanadi.

Rivoyat.

Temur Malik chekinishdan bo'lak chora qolmaganini angladi. O'z safdoshlarini atrofiga to'plab ma'yuz ohangda gap boshladi:

1. -Birodarlar! Ahli dunyo Rustami doston zamonidan beri sizdek pahlavonlami ko'rmagan edi. Shu damgacha quloq eshitmagan, ko'z ko'rmagan bahodirligingiz soyasida g'anim bir necha ming askaridan judo bo'ldi. Endi chekinmoq vaqti yetdi. Men boshda Xorazmdan madad kelar deb o'ylagan edim, yanglishibman. Xorazm butun lashkarini bir yerga to'plab, mo'g'ullami majaqlab tashlash o'rniga askarlarini tarqatib yuboribdi. Ular do'stlar so'ziga emas, pinjiga kirib olgan dushmanlar so'ziga kirdi. Ammo, biz qurol - yarog'ni tashlamaymiz. Safar kemasiga o'tirib, dushman bilan jang qila - qila, najot sohiliga erishurmiz... (Mirkarim Osim).

1. Ona tili darslarida ifodali o'qish talab qilinadigan mashqlar ham o'quvchilar faoliyatini kuchaytirish vositalaridan biridir. Mashq uchun tanlanadigan she'rlar faqat adabiyot programmasida mavjud asarlardagina bo'lmay, balki o'quvchilarning yosh xususiyatlariga to'g'ri keladigan asarlardan ham tanlansa, u samarali bo'ladi. Masalan: She'rni ifodali o'qing, bir tovushni o'zgartirish bilan qofiyadosh so'zlarni aniqlang. So'zning mazmunini o'z so'zingiz bilan so'zlab bering. O'qituvchi xalq shoiri Erkin Vohidovning "Ona tuproq" degan she'rini ifodali o'qitish, g'oyaviy mazmunini ochib berishi maqsadga muvofiqdir. Demak, umumta'lim maktablarida davlat tili hisoblangan o'zbek tilining o'qitilishi juda katta ijtimoiy, iqtisodiy, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyatga molik masalalardan biridir. O'z ona tilini har tomonlama bilgan, uning go'zal, rang - barang imkoniyatlaridan nutqda bimalol foydalana oladigan shaxsgina jamiyat talablariga javob bera oladi.

Ta'lim mazmunini yangilash, o'rganiladigan til materiallarini o'quvchilar uchun zarur bo'lgan til hodisalarini ular uchun tushunarli holda keltirishdir. Ta'lim mazmunini yangilash ona tili mashg'ulotlarida o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarni yangilash, o'quvchini o'rganish jarayonining sub'ekti, o'qituvchini esa shu jarayonning tashkilotchisi va boshqaruvchisi deb bilish lozim. O'quvchilarning o'z ona tiliga bo'lgan qiziqishini oshirish badiiy adabiyotni sevib o'qishga, mustaqil fikr yuritishga ham bevosita bog'liq.

O'quvchilarga so'z turkumlari, so'zlarni turkumlarga ajratishda e'tiborga olinadigan xususiyatlar o'quvchilarda qiyoslash, taqoslash, ko'nikmalarini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi. Bunda o'qituvchi borliqdagi narsa, voqea-hodisalarning o'xshash va farqli belgilarini aniqlab shu asosda ularni guruhlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ona tili fanining boshqa fanlar: botanika, zoologiya, fizika va geografiya fanlari bilan hamkorligi ham misollar orqali ko'rsatiladi.

So'z turkumlari haqidagi birinchi soatda shunday diktant o'tkazish mumkin: rostgo'ylik, halollik, mehnatsevarlik, haqgo'ylik, hamiyatlik, axloqli, farosatli, faxmli va h.

Lug'at diktant imloviy jihatdan tekshiriladi, o'quvchilarga xatolar yuzasidan topshiriqlar beriladi. So'ng o'qituvchi lug'at diktanti asosida o'quvchilar bilan sihat o'tkaziladi.

O'quvchilarga beriladigan savollar shunday bo'lishi mumkin:

1. Insonga xos xususiyatlar, xislatlar jami nima deb ataladi?
2. Mazkur fazilalar kimlarga xos?
3. Shunday fazilatlarning o'zida mujassam etganlar qanday kishilar hisoblanadi?

O'quvchilar bu xislatlarning jami fazilatlar deb atalishini aytadi. O'qituvchi insonga xos fazilatlarni tushuntiradi. Bunday fazilatlarga ega inson komil inson ekanligi aytiladi. O'qituvchi o'quvchilarni shunday fazilatlarini egallashga chaqiradi hamda xuddi shu fazilatlar kabi hayotdagi hamma narsa, voqea-hodisalar guruhlanishini uqtiradi.

So'ng o'qituvchi darslikdagi (6-sinf) 1-topshiriq. Narsalarning nomlarini bildiruvchi so'zlar guruhlarga ajratishda Buni o'qituvchi quyidagi savollar orqali amalga oshiradi.

1. Rasmda qanday narsalar tasvirlangan?
2. Bu narsalarni qanday guruhlarga ajratish mumkin?
3. Guruhlashda ularning qaysi o'xshash tomonlari e'tiborga olinadi?

2-topshiriqda berilgan daraxtlarning nomlari ham shu tarzda guruhlanadi. Daraxtlar nomlari meva berish va bermasligiga ko'ra quyidagicha guruhlanadi:

1. Mevali daraxtlar: olma, nok, olcha, shaftoli.
2. Mevasiz daraxtlar: terak, chinor, sada, tol.

O'qituvchi o'quvchilani mavzuiga oid nazariy xulosalarga olib kelishi uchun quyidagi savollarni beradi:

1. O'rganish uchun olingan turli narsa, voqea-hodisalar yig'indisi nima deyiladi?
2. To'plamni o'xshash va farqli belgilari asosida ichki guruhlariga bo'linishi nima deb ataladi?

O'qituvchi o'quvchilar javoblarini umumlashtirib, to'ldirib quyidagilarni bayon etadi; mana siz, ona tili, fizika, botanika, tarix, geografiya, matematika, zoologiya fanlarini o'rganayapsiz. Ana shu fanlarda o'rganish uchun olingan turli narsa, voqea-hodisalar yig'indisi to'plam deyiladi. To'plam guruhlariga bo'linadi. Biror umumiy belgi, xususiyat va shu kabilarga ko'ra birlashgan narsalar, hodisalar turkumi, majmui guruh hisoblanadi. Masalan, botanika fanida o'simliklar xuddi shu tarzda o'rganildi. Birgina zamondoshlar oilasiga 3000 ga yaqin turdagi daraxt, buta va ko'p yillik o'tlar kiradi. Ular o'z ichida 120 turkumga, guruhga bo'linadi: namatak, olma, olxo'ri, nok, shaftoli, maymunjon kabi, o'z navbatida guruhlar turlarga bo'linadi.

To'plamni o'xshash va farqli belgilar asosida ichki guruhlariga bo'lish tasnif deyiladi. Har qanday fanning asosini to'plam va tasnif tashkil qiladi. Inson borliqdagi narsalar va voqea-hodisalarni guruhlariga ajratish, tasniflash asosida o'rganadi.

6-sinfda "so'z turkumlari" mavzusini o'rgatishida, darsda e'tibor qaratiladigan tayanch so'zlar: guruh, turkum, so'z turkumi bo'ladi.

O'qituvchilarda so'zlarni ma'nosiga ko'ra quyidagicha tasnif qilish tushunchasi boyib boradi;

1. Shaxsni bildiruvchi so'zlar: bola, ahmad, va hokazo.
2. Narsa-buyumni bildiruvchi so'zlar: daftar, qalam, gul.

3. Belgini bildiruvchi soʻzlar: oq. Chiroyli, shirin.


4. Harakatni bildiruvchi soʻzlar: oʻqi, bormoq, oʻlmoq kabi.

Feʼl haqidagi dastlabki maʼlumot boshlangʻich sinflarda beriladi.

Oʻqituvchilar bordi, yugurdi, yozdi kabi feʼllarning harakat bildirishini yaxshi tushuntirgani holda, uxladi. Tingladi, mudradi soʻzlarining holat bildirishini izohlashga qiynaladilar. Shuning uchun ularda harakat va holat tushunchasini aniqlab olish yoʻllarini batafsil tushuntirish kerak.

Feʼlning xarakterli belgilaridan biri zamoni koʻrsatishi va shaxs – son qoʻshimchalari bilan oʻzgarishini oʻquvchilarga uqdira bilish lozim. Bunda oʻquv mashgʻulotlarida – darsda vaqtning asosiy qismini mashqlar bajarish – amaliy ishlar egallashi lozim.

Feʼl haqida maʼlumot, “feʼl mayllari”ni, feʼllarning tuzilishi”ni koʻrsatishda nimalarni oʻquvchilar bilishi zarur boʻlsa, shunday koʻrgazmadan unumli foydalanish mumkin.



Sodda feʼllarga:

Tuzla, yoz, os,
gapir, tashla,
oʻyna, suhbatlash

Qoʻshma


feʼllarga:
isholdi, paydo
boʻldi, deb keldi,
hal qildi,
pishirib oldi

Juft feʼllarga:


Kuldi-qoʻydi,
Bildi-qoʻydi,
Yozmadi-qoʻydi,
Yigʻladi-siqtadi

Takroriy

feʼllarga:
Koʻrdi-bordi,
Kuldi-kuldi,
Chizdi-chizdi,
Gapirdi-gapirdi.



Aniqlik mayliga:	O'tiring, Qarab turing, Kut-gil, Ko'rsating, Meni kutgin va men qaytarman. Kelin onajon o'tiring bizni duo qiling	Bahor kelsa, Kunlar isisa, Sayohatga chiqamiz
Buyruq-istak mayliga:		Shart mayliga: Bo'l-sa, Kor-sa, Tashkil qilsak, Beritsangiz



Harakat nomiga:	Sifatdoshga:	Ravishdoshga:	Bor+ib, Kor+gach, Bil+guncha.
-Moq, -uv, -sh, -ish, Yasha+moq, Uchrash+uv,	-gan, -kan, -qan, -digan, -yotgan, -r, -ar, -ajak, Gusi, -g'usi,	-b, -ib, -a, -ay, -ma, -gani, -gash, -guncha, -kach, -qach,	

O'qituvchi "Fe'l nisbatlaridan orttirma nisbat qo'shimchalarining ishlatilishi" mavzusini o'qitishda bir soatlik ish rajasini shunday tuzsa bo'ladi.

Darsning maqsadi:

1. Orttirma nisbat qo'shimchasining ishlatilishi haqida bilim berish.
2. O'quvchilarga axloqiy tarbiya berish.
3. O'quvchilarda muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Darsning metodi: muammoli o'qitish.

Darsning jihozi: 1) 6-sinf ona tili darsligi, 2) orttirma nisbat qo'shimchasining ishlatilishinomli ko'rgazma.

Dars o'tilgan mavzuni takrorlash bilan boshlanadi. Takrorlash quyidagi muammoli savollar asosida amalga oshiriladi;

1. Orttirma nisbat shakllaridagi fe'llar qanday ma'nolarni bildiradi?
2. Fe'llarning boshqa nisbat shakllaridan orttirma nisbat shakli qanday farqlarga ega?

O'quvchilar bu muammoli savollar asosida orttirma nisbat shaklidagi fe'llar boshqa shaxs tomonidan bajarilgan harakatni, ya'ni boshqa shaxsning ishtirokida ajarilgan harakatni anglatishini aniqladilar. Orttirma nisbat shakli fe'lning boshqa nisbat shakllaridan ma'nosi va qo'shimchalari bilan farqlanishini aytadilar.

Dars yangi mavzuga oid 1, 2 – topshiriqlarni bajartirish bilan davom ettiriladi. Topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqib, o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi muammoli savollarni beradi:

1. Qaysi nisbat shaklining qo'shimchalari ko'p?
2. Orttirma nisbat shakli qanday qo'shimchalar bilan yasaladi?
3. Quyidagi fe'llarga qavs ichidagi orttirma nisbat shakllarining qaysilari qo'shiladi.?

O`qi (-t, -tir), ot (-dir, -qiz), ich (-ir, -kiz, -tir, -iz), yoz (-t, -tir, -dir, -giz, -qiz) kabi

Muammoli savollar asosida o'quvchilar orttirma nisbat qo'shimchalarini va ularning shakllarini yozuv taxtasiga yozadilar. Berilgan fe'llarga ulardan mosini qo'shib ko'chiradilar: o'qit, o'tkiz, ichkiz, yozdir kabi. So'ng o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi ko'rgazmani taqdim etadi.

Orttirma nisbat qo'shimchalarining ishlatilishi		
1	-t	O'qit, ishlat, to'qit, to'xtat, qizit,
2	-dir	Oldir, yozdir, chizdir, yonder,
3	-tir	Toptir, aytir, bajartir, chaqirtir, sog'intir
4	-ir, -ar	Tushir, shoshir, ichir, uchir, qaytar, chiqar
5	-giz, -qiz	Yurgiz, ko'rgiz, urgiz
6	-kiz, qiz	Ketkiz, yutqiz, tekkiz, tutqiz
7	-iz, az	O'qiz, tegizz, tomiz

O'qituvchi o'quvchilarga orttirma nisbat qo'shimchalarining ishlatilishiga doir quyidagi muammoli savollar beradi va savollarga ko'rgazma asosida javob berish mumkinligini uqtiradi:

1. Orttirma nisbatning –t shakli qanday fe'l asoslariga qo'shiladi?
2. Orttirma nisbatning –dir, -tir shakli qanday tovushlar bilan rugagan fe'l asosiga qo'shiladi.?
3. Orttirma nisbatning –r, -ar, -iz, -az shakllarichi?
4. Orttirma nisbatning –giz, -qiz, -kiz qo'shimchalarining fe'l asoslariga qo'shilishi tartibi qanday?

Muammolarni hal qilish asosida o'quvchilar orttirma nisbat shakli qo'shimchalarining ishlatilishi haqidagi bilimlarni o'zlashtiradilar. Mavzuga doir olingan bilimlar 116-117-mashqlarni bajartirish asosida mutahkamlanadi.

118-mashqani bajartirishda o'quvchilarda orttirma nisbat qo'shimchalarini tog'ri qo'llash ko'nikmlari shakllantiradi.

Mustahkamlash jarayonida “Maqollar aytish bahsi”ni o‘tkazish ham mumkin. Bunda o‘quvchilarga turli nisbat shakllaridagi fe‘llar qatnashgan ko‘p maqollar aytish shart qilib qo‘yiladi. Masalan,

Aql aqldan quvvat oladi.

Oltin olma duo ol.

119-mashqa topshirig‘iga ko‘ra solmoq, bo‘zlamq, qaytmoq, osmoq fe‘llarini orttirma nisbat shaklida qo‘llab, “qo‘shiq sehri” mavzusida bog‘lanishli matn tuzish uyga vazifa qilib beriladi.

Oltinchi siunfda “F‘el” so‘z turkumini o‘qitish uchun 60 soat ajratilgan. “Fe‘llarning tuzilishiga ko‘ra turlari” mavzusi o‘qitilib, mavzular bo‘yicha mustahkamlangach, ikki soat bayon va uning tahlili o‘tkaziladi. Bunda o‘quvchilarning ko‘makchi fe‘l qo‘shimchalari, fe‘lning tuzilishiga ko‘ra turlari, fe‘l yasalishi yuzasidan olgan bilimlarini sanash va mustahkamlash maqsad qilib olinadi.

Bayon uchun quyidagi matnni olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Matn orqali o‘quvchilarga mehmondorchilik odobi o‘rgatiladi.

Ziyorat qilish

Uyingizga sizni ziyorat etgani kelgan mehmonlarni muloyimlik bilan va ochiq yuz bilan qarshi olib ko‘rishning, munosib joyga o‘tkazib, hol-ahvollarini so‘rang. Kuchingiz yetkuncha ovqatdan va boshqa har jihatdan ularni mamnun qilib, izzat va hurmatlarini bajo keltiring. Keyin sizdan ruxsat olib ketmoqchi bo‘lib o‘rinlaridan tursalar, ko‘cha eshigigacha ularni kuzatib boring. Qarindosh-urug‘laringiz, yo do‘stlaringiz yoki tanish-bilishlaringizni ziyorat qilish uchun ularni uylariga bormoqchi bo‘lsangiz, avvalo, uyga kiyadigan kiyimlaringizni yechib, yuz, qo‘llaringizni sovunlab yaxshilab, yuvib, tozza kiyimlar kiyib ularning uyiga boring.

Birovning uyiga borganingizda eshikni ochib, so‘ramay-netmay ichkariga to‘ppa-to‘g‘ri kirib bormang, oradan bir oz vat o‘tkazib, eshikni uch marta taqqillating, uy egasiga ziyorat uchun kelganingizni bildiring. Uy ichidagilardan biror kishi tovush chiqarmasa, hech kim yo‘qligi aniqlashiladi. U vaqtda ko‘p

turmay, qaytib keeling. Agar lozim topsangiz, kelganingizni bildirib xat yozib, eshikning bir yeriga qistirib keting.

Ziyorat qilishdan maqsad bir kishining uyida hol-ahvollarini tekshirish emas, balki, o'zining unga bo'lgan hurmatini, do'stligini bildirishdir. Shunga ko'ra kimni ziyorat qilgani kirgani borsangiz agar u kishi samimiy do'stingiz, o'rtog'ingiz bo'lmasa, u bilan hazillashmang, kitoblarini, yozgan xatlarini axtarmang, hech bir narsasiga tegmang.

Uyiga sizni taklif qilgan kishining taklifini qabul qilib, borishga va'da bergan bo'lsangi, tayin etilgan vaqtdan kechikmay boring. Biror voqea sababli borishingiz mumkin bo'lmay qolsa, taklif qilgan kishiga uzuringizni yetkazing.

Qarindosh – urug'ingiz, do'stlaringiz va boshqa tanish bilishlaringizdan birini kasal bo'lib yotganida xabar topsangiz, darhol uni ziyorat qilib hol-ahvol so'rang.

Kasal og'ir holda bo'lgani uchun shifokorlar uning yoniga ruxsat bermasallar, kasalning holini va u yerdagilardan so'rab bilish bilan qanoat qiling.

Shifokor ruxsati orqali kasal ko'rishga kirsangiz, uning yonida ko'p o'tirmang, ko'ngliga og'ir keladigan qayg'uli so'zlarni so'zlamang.

Kasalning mumkin qadar shikoyatini tinglang, ko'nglini ko'taring, sabr etishga da'vat qiling, qo'rqitmang, tez kunda shifo topishini aytib ko'ngliga umid baxsh eting.

Ravish so'z turkumini o'rganishda bu so'z turkumining morfologik jihatdan o'zgarmasligi, ko'proq fe'llarga bog'lanib, harakat, holat, ba'zan belgining belgisini bildiruvchi mustaqil so'z ekanligi haqida ma'lumot beradi.

Vodiylari yayov kezganda,

Bir ajib his bor edi menda.

Ravish kelishiklar bilan turkumlanmaydi. Shaxs-sonda tuslanmayi, ko'pincha fe'lga bog'lanib gapda hol vazifasida keladi. So'z yasovchi qo'shimchalarga (-cha, -ona, -larcha, -lab) ega. Shakl yasovchi qo'shimchalarni ham qbul qilishi uning Grammatik belgisi. Masalan, yigitchasiga ishlkab mo'maygina pul topa boshladi.

6-sinf ona tili fanida “ravish” soʻz turkumi uchun ajratilgan soatlarda (11 soat) soʻz turkumi, uning yasalishi, tub va yasama ravishlar, ravish yasovchi qoʻshimchalar, ravishlarning maʼno turlari, holat, ravishlari, payt ravishlari, oʻrin ravishlari, miqdor-daraja ravishlari haqida maʼlumot beriladi.

Oʻqituvchi “Ravish” soʻz turkumi haqida maʼlumot berishda darsni yangi mavzuga oid topshiriqni bajarish bilan boshlasa yaxshi boʻladi. Topshiriqda berilgan soʻz birikmalaridagi belgi ifodalagan soʻzlarning narsaning yoki harakat-holat belgisini bildirishiga koʻra farqlaydilar⁹.

Namuna: erta-ertaroq, kecha-kechasi, tez-tezroq, Topshiriqlar yuzasidan bildirilgan fikrlar umumlashtiriladi. “bilib oling” rukni ostida nazariy fikrlar oʻqituvchi tomonidan tushuntiriladi. Mavzu mashqlarini bajarish orqali mustahkamlanadi.

428-mashq. Matndagi ravish soʻz turkumiga oid soʻzlar ajratilib, ular oʻzi bogʻlangan soʻzlar bilan birga koʻchiriladi. Masaln, Kiyikcha toliqa boshladi shu sababli ancha ortda qoldi. – birikmasida ancha (qancha?) miqdor ravishi qoʻllangan.

429-mashqda esa, berilgan gaplar koʻchiriladi, ravishlar aniqlanib, qanday maʼno anglatayotgani tushuntiriladi. Namuna: shu vaqt nima uchundir hamma birdan sharaqlab kulib yubordi. Birdan (qanday?) – holat ravishi.

Bu mavzuni oʻrganishda darslikda berilgan topshiriqlarni bajarish orqali oʻquvchilarga ravishlarning yasalishi, tub va yasama ravishlar haqidagi tushunchalarni berishdan boshlanadi.

Ravish yasovchi qoʻshimchalar mavzusini oʻqitishda ushbu koʻrgazmali quroldan foydalanish mumkin.

Ravish yasovchi qoʻshimchalar		
1	-cha	Oʻzimcha, istagancha, qisqacha
2	-chasiga	Ochiqchasiga, yigitchasiga, qahramonchasiga

⁹ Asadov F. Oʻquvchilarga ravish haqida ilk tushuncha berish. // Til va adabiyot taʼlimi jurnali. 2003 yil, 3-son.

3	-larcha	O'rtoqlarcha, do'stlarcha, polvonlarcga
4	-lab	Haftalab, oylab, saharalab
5	-ona	Olimona, xolisona, oqilona, g'olibona
6	-dek, -day	Birinchipday, otdek, gulday, ilgariyidek
7	-an	Vijdonan, taxminan, ruhan
8	-in (lay) –layin	Yashirin, butunlay, tiriklayin

Ravishlarning ma'no turlari bo'yicha o'qituvchi ish rejasidan namuna keltiramiz.

Darsning maqsadi:

1. O'quvchilarga ravishlarning ma'no turlari haqida bilim berish.
2. O'quvchilarni do'stlarga sadoqat ruhida tarbiyalash.
3. O'quvchilarda kuzatuvchanlik, hodisalarini qiyoslab o'rganish ko'nikmasini shakllantirish.

Darsning metodi: suhbat, ko'rgazmalik

Darsning jihozi:

1. 6-sing ona tili darsligi.
2. Ravishlarning ma'no turlari nomli ko'rgazmali qurol.

Dars tashkil etilib, uy vazifasi tekshirilgach, o'qituvchi topshiriqlarni bajartirish bilan mavzuni o'rgatishni boshlaydi. Topshiriqlarga ko'ra o'quvchilar berilgan ravishlarga so'roq berib ma'nosini aniqlaydilar va quyidagicha ma'no guruhlariga ajratadilar.

Namuna:

Holat ravishi (qanday?)	Payt ravishi (Qachon?)	O'rin ravishi (Qayer?)	Miqdor daraja ravishi (Qancha?)
Astoyidil yaqqol	Ertalab Saharlab	Tashqari	Ko'p

Topshiriqlarin “Topqirlar va zukkolar bahsi” tarzida bajarish yaxshi samara beradi. So’ng o’quvchilar bilan quyidagi yangi mavzuga yo’naltiruvchi savollar asosida suhbat o’tkaziladi.

1. Ravishlar qanday ma’nolarni ifodalaydi?
2. Ravishlar ma’nosiga ko’ra qanday turlarga bo’linadi.
3. Ravishlarning ma’no turlari qanday niqlanadi?

O’qituvchi o’quvchilarning javoblarini umumlashtiradi va to’ldiradi: Ravishlar ma’nosiga ko’ra holat, payt, o’rin, miqdor-daraja, maqsad-sabab ravishlariga bo’linadi. Ravishlarning ma’no turlarini so’roq berish asosida aniqlash mumkin.

Mavzuni o’rgatishda quyidagi ko’rgazmadan foydalanish mumkin.

Ravishlarning ma’no turlari		
Ma’no turlari	Ma’nolari	Misollar
Holat ravishi	Harakatni qay tarzda bajarilishini bildiradi.	Sekin, yayov, piyoda, arang, astoyidil
Payt ravishi	Harakat-holatning bajarilish yoki bajarilmaslik paytini bildiradi	Bugun, avval, hozir, doim, erta-indin
O’rin ravishi	Harakat yok iholatning bajarilish, yo’nalish, chiqish o’rnini bildiradi	Oldinda, olisda, yiroqda, pastda, quyida
Miqdor-daraja ravishi	Harakat-holatning miqdor darajasini bildiradi	Oz, arang, zo’rg’a, chor-nochor, sal-pal
Maqad-sabab ravishlari	Harakat va holatning maqsad sababini bildiradi.	Noiloj

Mavzuga oid mashqlar bajariladi. O’quvchilarga 439-mashqa “Topqirlar va zukkolar bahsi”, “Kim chaqqon va zukko”? oyin tarzida bajartirish maqsadga muvofiq. 140-141-mashqalar og’zaki bajartiriladi.

So'ng o'qituvchi quyidagi savollar asosida "Yurtimiz posbonlari" mavzusida sunbat o'tkazadi:

1. Yurt tinchligi deganda nimani tushunasiz?
2. Yurtimizni kimlar himoya qilishadi?
3. Ularning bayrami qachon?

Suhbat mazmunini o'qituvchi umumlashtirib olgan bilimlarini sinash va baholash maqsadida o'tkaziladigan test namunalaridan keltiramiz.

- 1) Ravishlar so'rog'I va ma'nosiga ko'ra qaysi so'z turkumlariga o'xshab ketadi?
 - a) Sifatlarga
 - b) Ot va sifatlarga
 - c) Olmosh va sifatlarga
 - d) Son ot va sifatlarga
 - e) Faqat otlarga
- 2) Qaysi so'z turkumlaridan so'z yasovchi qo'shimchalar vositasida ravishlar yasaladi?
 - a) Ot va sifat
 - b) Son va sifat
 - c) Son, olmosh va ot
 - d) Son, ot, sifat
 - e) Fe'l, son, sifat
- 3) Ravish yasovchi qo'shimchalar qatorini toping.
 - a) –cha, -gina, -larcha, -li, -chasiga.
 - b) –ona, -ar, -an, -ib, -lar.
 - c) –cha, -lab, -larcha, -ona, -an, -chasiga/
 - d) –an, -ar, -lar, -lar, -cha, -chasiga
 - e) –li, -ba, -be, -no, -ser
- 4) Astoyidil, jo'rttaga, bexosdan, to'satdan, qat'iyan, so'zlari ravishning qaysi ma'no guruhiga kiradi?
 - a) Payt ravishlari

- b) Holat ravishlari
 - c) O'rin ravishlari
 - d) Miqdor-daraja ravishlar
 - e) Holat va miqdor daraja ravishlari
- 5) Gapda qanday ravish qo'llangan? Qiz atrifga qarab turib birdan o'z uyining tomini ko'rib qoldi. (Ertakdan)
- a) Payt ravishlari
 - b) Holat ravishlari
 - c) O'rin ravishlari
 - d) Miqdor-daraja ravishlari
 - e) Gapda ravish qo'llanmagan
- 6) Ravishlar gapda asosan qanday gap bo'lagi vazifasini bajaradi?
- a) Kesim
 - b) Hol
 - c) Ega
 - d) Aniqlovchi
 - e) B va d javoblar

So'zlarning umumiy grammatik ma'nolari hamda o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra ma'lum guruhlariga ajratilishini tushuntirishga, ko'rsatishga harakat qildik. Mustaqil so'z turkumlari lug'aviy ma'noga ega bo'lib, gapda muayyan sintaktik vazifa bajaradigan o'ziga xos so'roqlarga javob bo'ladigan so'zlar ekanini ko'rdik. Ularga ot, sifat, son, fe'l, ravish, olmosh va taqlid so'zlar kirar ekan.

Yordamchi so'z turkumlari – ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar hisoblanadi. Bular mustaqil so'z, so'z birikmalaridir. Yordamchi so'zlar sodda va qo'shma gaplar orasidagi munosabatlarni tiklaydi, so'z va uning mazmuniga qo'shimcha ma'no beradi, ba'zan o'ziga kelishik qo'shimchalari oladigan, ammo yakka holda ma'no anglatmaydigan, so'roqlarga javob bo'la olmaydigan hamda gap bo'lagi bo'la olmaydigan so'zlarga aylanadi.

Ko'makchi mustaqil so'z turkumlaridan keyin kelib, ularni boshqa so'zlarga tobelantirish yo'li bilan bog'laydigan yordamchi so'zlardir. Ko'makchilar aysi so'zdan keyin kelsa, o'sha so'z bilan birgalikda bir so'roqqa javob bo'ladi. Bir xil gap bo'lagi vazifasida keladi. Masalan:

1. Qush parvoz uchun inson baxt uchun yaralgan.
2. Ona o'rtagan til ham Hamish biz uchun ona kabi ardoqlidir.
3. Hayot quyosh bilan inson xulqi bilan go'zaldir.
4. Jasorat, ite'od singari. Maqsad sari boradigan yo'lni osonlashtiradi.

Gapning uyushiq bo'laklari va qo'shma gapdagi sodda gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlar bog'lovchi deb ataladi.

Bog'lovchilar yakka va takrorlangan holda qo'llanadi.

Yuklamalar mustaqil so'z va gaplarga yok iuning biror bo'lagiga qo'shimcha ma'no beradigan yordamchi so'zlardir. Ular tuzilishiga ko'ra:

1. So'z yuklamalari (gaqat, ham, axir, hatto)
2. Qo'shimcha ko'rinishdagi yuklamalar (-ku, -q, -oq, -ya, -mi, -gina) ga bo'linadi.

Modal undov taqlid so'zlar alohida turkumlardir. Bu so'z turkumlari alohida lug'aviy ma'no bildirmaydi, ba'zan gap bo'lagi vazifasini bajarishi mumkin.

O'qituvchilarga so'z turkumlarini o'rgatishda e'tiborga olinadigan xususiyatlar haqida bilim berish, o'quvchilarga qiyoslash, taqqoslash, xulosa chiqarish ko'nikmalarini maqsad qilib ish olib borilsa, ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Xulosa.

Bitirish ishimizning mavzusi:

"O'zbek tilidan mashqlar to'plamlari mazmun mundarijasi" ni atroflicha bayon etish maqsadida M.Mirzayevning "Hozirgi o'zbek adabiy tilida mashqlar to'plami. Shuningdek, R. Ikromova., Yu. Eshonqulov., K.Qosimovalar tomonidan yozilib, nashr etilgan pedagogika institutlari filologiya fakultetlarining studentlari uchun, pedagogika institutlarining pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi, defektologiya fakultetlari uchun qo'llanmadan asosiy tayanch sifatida foydalandim. Bitirish ishimning kirish qismida mavzuga doir darslik, qo'llanma va ilmiy to'plamlarda berilgan fikrlar o'rganib chiqilib, ularga nisbatan o'z munosabatimni bildirdim.

1. Ishning birinchi qismida ona tili O'qituvchisi tomonidan har bir mavzuni O'quvchilar, talabalar ongiga yetkazishda o'quv rejasining bo'lishiga uni sistemali o'tishga e'tiborni qaratdik.

Shu maqsadda 5 - sinf ona tili darsligi yarim yillik ish rejasining namunasini keltirdik.

Dastlab kirish mashg'ulotini o'tish yuzasidan 9 ta mashq berilgan. Jumladan 7 - mashq. Quyidagi hikmatli so'zlarni daflaringizga ko'chirib yozing. O'zingiz ham shunday misollar toping.

Ona tilim - jonu - dilim.

Ona tilim - jonimga masix (payvand).

Ona tilini unutganlar xor bo'ladi.

Takrorlash qismida 46 ta mashq berilgan bo'lib, har bir mashqni bajarishda O'quvchilarning amaliy mashg'ulot davomida og'zaki va yozma nutq madaniyatini o'stirishga alohida ahamiyat qaratilgan.

Bitirish ishimizning asosiy qismi hisoblangan morfologiya - so'z turkumlari, mustaqil va yordamchi so'zlarda ham grammatik ta'riflarga mos misollar, mashqlar tahlil qilinadi. Jumladan darslikning 70 - betidagi 230 - mashq. Gaplarni ko'chiring. Otlarning qaysi gap bo'lagi bo'lib kelganini aniqlab, tagiga chizing.

1. Muhammadqodir Abdullayev 1973 yilda Andijonning Jalabek mavzesida tug'ilgan. Oqqan daryo oqaveradi. (maqol). Oyijon, chindan ham shishaning ichida jon bormi?

Shuni unutmaslik kerakki, morfologiyani o'rganishda o'quvchilar faoliyatini aktivlashtirish imkoniyatlaridan biri ularni morfologik stilistik malakalar bilan qurollantirishdir. O'quvchilar, talabalar bu bo'limni o'rganish natijasida nafaqat morfologik tushunchalar (soz yasash) sistemasi bilan qurollantirilishi, turli grammatik qoidalarni erkin farqlash va tahlilda bemalol topa olishlari, balki morfologiyaning keng imkoniyatlaridan og'zaki va yozma nutqda to'g'ri va o'rinli foydalanish malakalariga ega bo'lishlari lozim.

1. O'quvchilarni so'z turkumlarining stilistik imkoniyatlaridan nutqda unumli foydalanishga o'rgatish ona tili o'qitishning amaliy yo'naishini kuchaytiradi. Bu esa o'quvchilar faoliyatini aktivlashtirishning zaruriy elementlaridan biridir.

Ot so'z turkumiga oid ma'lumotlarni so'zlovchining o'z nutqiga munosabatini bildiruvchi formalarning tilga oid xususiyatlari bilan tushuntirish, ular aktivligini oshirishga xizmat qiladi. Ma'lumki, o'zbek tilidagi - ga, - gina, -choq, - chaq, - loq, - jon, - xon, - oy, - beka, - bekach, - poshsha, - bibi, - pari, -bonu, - niso, - gul singari qo'shimchalar va so'zlar borki, ular otga qo'shilib, so'zlovchining borliqqa, o'z nutqiga ijobiy yoki salbiy munosabatini anglatadi. Bu so'z turkumini o'rganishda o'quvchilar juda qiynaladilar.

Demak, otlarda ko'plik, egalik, kelishik kategoriyalarining mohiyatini chuqur anglash, ot yasovchi qo'shimchalarning ma'nolari bilan tanishtirish so'z turkumini o'rganishda o'quvchilar faoliyatini aktivlashtirishning muhim omillaridan biridir.

O'quvchilar faoliyatini aktivlashtirishda sifat, son, olmosh, ravish, fe'l so'z turkumlarini puxta o'rganish ham ular bilimini mustahkamlashda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Shuni unutmaslik kerakki, mashq materiali sifatida matnlar (tekstlar) dan foydalanish ham o'quvchilar nutqini o'stirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Mashq uchun tanlanadigan tekst mavzuga mos bo'lishi, qisqaligi, o'quvchiga emotsional va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishini ham hisobga olish talab etiladi.

Taniqli tilshunis olim Asqar G'ulomov o'zining bir ishida o'quvchilarning o'quv - biluv faoliyatini aktivlashtirishda o'quv topshiriqlarining imkoniyatlari to'g'risa fikr yuritib, mashq namunalari keltiradi.

O'qituvchi "Ko'chma va o'zlashtirma gap" larni o'rgatishda A. Qahorning "O'g'ri" hikoyasidan olingan parchani keltirish orqali mavzuni mustahkamlashga harakat qilsa bo'ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 439 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Тошкент: Маънавият, 2008.-173 б.
3. Karimov I.A. "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" . Toshkent. 1997 yil.
4. Karimov I.A. "Milliy mafkura - kelajak poydevori". Toshkent. 2000 yil.

II. Ilmiy adabiyotlar:

3. Mahmudov N., Nuraianov A. va boshqalar. Ona tili. 2 - nashri. 5 - sinf uchun darslik. Toshkent. 2007 yil.
4. Abdurahmonov G'. Punktuatsiya o'rgatish metodikasi. Toshkent.
5. "Ta'lim to'g'risida" qonun. 1997 yil.
6. Ziyodova T.U. Ona tili O'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. Toshkent. 2002 yil.
7. Ziyodova T.U. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish. Toshkent. 2000 yil.
8. Ne'matov va boshqalar. Ijodiy matn ustida ishlash. Toshkent. 1997 yil.
9. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi Toshkent. 2001 yil.
10. To'qliyev B. va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent. 2006 yil.
11. Ta'lim jarayonida matn ustida ishlashning asosiy omillari. Toshkent. 1997 yil.
12. Mahmudov N. va boshqalar. Ona tili. 5 - sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent. 2004 yil.
13. To'xliyev va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2010.

14. Nurmonov A., Rasulov R. O'zbek tili jadvallarda. – Toshkent, 1985.
15. Турсунов У. Мухторов З., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1992.
16. Ғуломов Ё. ва бошқалар. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. – Тошкент, 1975.
17. Улуқов Н.М. ва Ғойибназарова Н.Р. Она тили 6-синф ўқувчмлари учун методик қўлланма. – Тошкент, 2005.
18. Махмутов М. Мактабда проблемали таълимни ташкил қилиш. – Тошкент, 1981.
19. Мирзаев М., Эшонқулов А. Ҳозирги ўзбек адабий тили машқлар тўплами. – Тошкент, 1984.
20. Қодиров Р. Тил ва эл. – Тошкент, 2005.
21. Asadov F. O'quvchilarga ravish haqida ilk tushuncha berish. // Til va adabiyot ta'limi jurnali. 2003 yil, 3-son.
22. Икромова Р. Қосимова К. Ўзбек тилидан машқлар тўплами. – Тошкент, 1988.
23. Ўзбек тили нутқ маданиятига оид масалалар. Ўзбекистон. Фан нашриёти. – 1973.
24. Юсупова М. Диктантлар тўплами. – Тошкент, 1996.
25. G'ulomov A., Qodirova M. Она тили о'қитиш методикаси. Toshkent? "Universitet" 2001.